



INKLYUZIV TA'LIM SOHASIDA TARBIYACHI PEDAGOGLARNING KOMMUNIKATIV KOMPITENSIYASINI SHAKLLANTIRISH YO'LLARI

Djurakulova Lola Raxmonberdiyevna

Nizomiy nomidagi O'zbekiston milliy pedagogika universiteti "Maktabgacha ta'lim nazariyasi va metodikasi" kafedrasi o'qituvchisi

E-mail: loladjurakulova86@gmail.com

Tel: +99890 186 14 08

Аннотасија. *Ushbu maqolada kommunikativ kompetensiyalar yondashuv asosida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning ijtimoiy zarurati hozirgi davr pedagogik ilmlar tasnifida aynan mutaxassis kompetensiyasi masalasi o'zining dolzarbligi bilan alohida ahamiyati haqida ma'lumotlar berilgan. Dunyoda kadrlar raqobatbardoshligini oshirish, maktabgacha ta'lim pedagoglari uchun amaliy-metodik yo'naltirilgan kasbiy rivojlanish muhitini yaratish va zamonaviy talablarga yo'naltirilgan didaktik ta'minotni modernizatsiyalash bo'yicha AQSh, Rossiya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Janubiy Koreya, Norvegiya, Finlyandiya, Gretsiya kabi davlatlarda ta'lim jarayonlarini modellashtirish, loyihalashtirish, maktabgacha ta'lim tizimi pedagoglarini kommunikativ kompetensiyalarining shakllantirish asosida o'quv materiallarini o'zlashtirishga nisbatan motivatsiyasini oshirish hamda ularning kasbiy kommunikativ kompetentligini rivojlantirish bo'yicha ilmiy tadqiqotlar haqida ma'lumotlar berilgan.*

Kalit so'zlar: *inklyuziv ta'lim, tarbiyachi - pedagog, kommunikativ - kompetensiya, integratsiya, empatiya, muloqatchanlik, sabr bardosh, eruditsiya, aspekt, tarbiyachi-pedagoglar*

Аннотация: *В данной статье представлены сведения о социальной необходимости развития профессиональной компетентности будущих педагогов на основе подхода коммуникативных компетенций, а также об особой значимости вопроса компетентности специалиста в современной классификации педагогических наук. В таких странах, как США, Россия, Великобритания, Германия, Южная Корея, Норвегия, Финляндия, Греция в целях повышения конкурентоспособности кадров в мире, создания практической и методически ориентированной среды профессионального развития педагогов дошкольного образования, модернизации дидактической поддержка, ориентированная на современные требования, моделирование и проектирование образовательных процессов, повышение мотивации педагогов системы дошкольного образования к освоению учебных материалов на основе формирования их коммуникативной компетентности, профессиональной коммуникативной компетентности. приведены сведения о научных исследованиях по развитию компетентности.*

Ключевые слова: инклюзивное образование, педагог-педагог, коммуникативная компетентность, интеграция, эмпатия, общение, терпение, эрудиция, аспект, педагог-педагоги.

Annotation: *This article provides information about the social necessity of developing the professional competence of future educators based on the approach of communicative competences, and the special importance of the issue of specialist competence in the current classification of pedagogical sciences. In countries such as the USA, Russia, Great Britain, Germany, South Korea, Norway, Finland, Greece in order to increase the competitiveness of personnel in the world, create a practical and methodologically oriented professional development environment for preschool pedagogues, and modernize didactic support oriented to modern requirements modeling and designing educational processes, increasing the motivation of preschool education system pedagogues to master learning materials based on the formation of their communicative competence, and their professional communicative competence information about scientific research on the development of competence is given.*

Key words: *inclusive education, educator - pedagogue, communicative competence, integration, empathy, communication, patience, erudition, aspect, educator – pedagogues*

Kirish

Jahonda zamonaviy ta'lim siyosatining istiqbolli yo'nalishlaridan biri inklyuziv ta'lim muhitida jismoniy holatidan qat'iy nazar ijtimoiy himoyaga muhtoj, imkoniyati cheklangan bolalarni ijtimoiy hayotga jalb qilish, ularga bilim berish va rivojlantirish modellari amalyotga tatbiq etilmoqda. 1993-yil 1- dekabrda 153 mamlakatda bolalar huquqlari haqidagi Konventsiyaning ratifikatsiya qilinishi vositasida, ularda bolalar kelajagini muhofaza qilishga tayyor ekanlik namoyish etildi. Konventsiya butun jahon bolalar huquqlari haqidagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining shartnomasidir. Konventsiya – bola huquqlari haqidagi universal rasmiy Kodeksdir. Konventsiyada bolalar huquqlari to'rt toifaga ajratib berilgan bo'lib, ular 54 moddani o'z ichiga qamrab olgan. 1994-yilda YuNESKO «Maxsus ta'lim zaruriyati» nomli hujjatni tayyorlab, unda maxsus ta'limga muhtoj bolalar va yoshlar uchun ta'limni tashkil etish hamda takomillashtirish masalalarini ko'rib chiqdi. Ushbu ta'lim turida asosiy o'rin reabilitatsiya masalalariga ajratilgan. Hujjatda: «Maxsus ta'limni alohida yordamga muhtoj kishilarga tashkil etishdan maqsad – jismoniy yoki ruhiy rivojlanishida nuqsoni bor bolalar va o'smirlarni mustaqil, hamma qatori yashash sharoitida jamiyatga tiklash», – deb takidlangan.

Statistik ma'lumotlarga ko'ra, dunyo aholisining 15 foizini nogironlar tashkil etadi va ularning 80 foizdan ortig'i rivojlanayotgan mamlakatlarga to'g'ri keladi. Dunyodagi har 7(etti) kishidan biri turli xil nogironlikdan aziyat chekmoqda. Dunyo aholisi 8 (sakkiz) milliardga etganini hisobga olsak, nogironlar soni 1(bir) milliarddan oshadi. Afsuski,

ularning 100 milliondan ortig'i bolalardir. O'zbekistonda nogironligi bo'lgan shaxslarning rasmiy e'lon qilingan soni aholining 2,1 foizini tashkil etadi.


Respublikamizda inklyuziv ta'limni rivojlantirish, maktabgacha ta'lim jarayonida inklyuziv ta'limni samarali tashkil etishda raqobatbardosh mutaxassislar bilan ta'minlash, inklyuziv ta'lim texnologiyalarini takomillashtirish va joriy etishning me'yoriy asoslari yaratilmoqda. "Yoshlar uchun ochiq va sifatli ta'limni ta'minlash, ta'limning barcha bosqichlarida yoshlarning mukammal ta'lim olishini ta'minlash, hududlarda inklyuziv ta'lim rivojlanishi uchun shart-sharoit yaratish" ustuvor vazifalar sifatida belgilangan. Natijada, maktabgacha yoshdagi bolalarni aqliy va jismoniy rivojlantirish, inklyuziv ta'limni uzluksiz amalga oshirish, bo'lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta'lim sharoitida kasbiy faoliyatga tayyorlashning metodik asoslarini takomillashtirishning to'liq imkoniyatlar yaratilmoqda.

O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 16-dekabrda O'RQ-595-son "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida", 2021-yil 6-iyuldagi O'RQ-695-son "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006-yil 13-dekabr) ratifikatsiya qilish haqida" qonunlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022- yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022-2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida" Farmoni, 2018-yil 30-sentyabrdagi PQ-3955-son «Maktabgacha ta'lim tizimini boshqarishni takomillashtirish choratadbirlari to'g'risida», 2019-yil 8 maydagi PQ-4312-son "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2020- yil 13-oktyabrdagi PQ-4860-son «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarda ta'limtarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida» qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirining 2020-yil 27-martdagi 54-son buyrug'i, Maktabgacha ta'lim vazirligi Hay'atining 2018-yil 7-iyuldagi yig'ilishi qarori bilan tasdiqlangan "Ilk qadam" maktabgacha ta'lim muassasasining davlat o'quv dasturi hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi

Murakkablashgan jarayonda tarbiyachi (pedagog, ta'lim beruvchi) nafaqat ilmiy bilimlar tashuvchisi, balki hayotiy tajribaga, ta'limda o'z qarashlariga ega murabbiy sanaladi. Shaxsiy tajribasiga tayanish bo'lajak tarbiyachilarni ma'naviy murabbiy sifatida yetuklikka chorlaydi.

Tadqiqotchi D.Kaxarova quyidagicha ta'rif beradi: «Inklyuziv ta'lim texnologiyasi (ITT) – bu uzluksiz ta'lim tizimida maxsus yordamga muhtoj bolalar va yoshlar uchun mehribonlik bilan tizimli yondashadigan, individuallashtirilgan, sharoitga qarab o'zgaruvchan, maxsus o'quv dasturlari, materiallari, vositalari va metodlari yordamida ta'lim-tarbiyaning pedagogik-psixologik jihatlarini zamonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayondir» [23, 6-b.].



Inson o'zining dunyoni idrok qilish qobiliyatini so'z orqali ifodalanadigan tushunchalar va hissiyotga boy obrazlar orqali amalga oshiradi hamda uni umumlashtirilgan sub'ektiv modeli sifatida talqin etadi. «Shaxs hayot faoliyatining perseptiv, emotsional, kognitiv va kommunikativ sohalarga tegishli bo'lgan qator komponentlar yig'indisini o'zida mujassam etgan» [61, 97-b.] tolerant inson ongining muvaffaqiyatli tarzda shakllanishga sabab bo'ladi.

L.N Davidova, M.A. Kolokolseva va Ye.V. Ryabovalarning fikricha, inklyuziv ta'limning etik negizini «Uch toifa tashkil etadi – tenglik, erkinlik, adolat. Agarda ta'lim shu ustunlar asosida qurilsa, bunday g'oyalar bolalar ongiga tabiiy ravishda o'rnashadi, chunki ular o'zlarining “alohida xususiyatlarga ega bo'lgan” tengdoshlarining haq-huquqlari va erkinliklarini hurmat qilish tamoyillariga asoslangan munosabatlar ishtirokchisiga aylanadi» [109, 38-b.].

Yuqorida nomlari tilga olingan mualliflar tomonidan ifodalangan nazariy ta'riflar va fikrlarga qo'shilgan holda bo'lajak tarbiyachilarni inklyuziya muhitlarida ishlashga kasbiy tayyorlash tizimini takomillashtirish sohasida amalga oshirilgan ishlar tahlili biroq, ushbu nazariy model bo'lib, uning maktabgacha ta'lim tashkiloti pedagoglariga amaliy moslashuvi haqida yetarli ishlar olib borilmagan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

inklyuziv ta'lim muhitida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonining takomillashtirilgan pedagogik modeli joriy etilgan;

tadqiqotga oid ta'riflar (inklyuziv ta'lim muhiti, inklyuziv kompetentlik, inklyuziv ta'lim texnologiyasi) mualliflik g'oyalari asosida takomillashtirilgan;

inklyuziv ta'lim muhitida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash texnologiyasini samarali amalga oshirish imkoniyatlari va sharoitlar kompleksi taklif etilgan;

inklyuziv ta'lim muhitida bo'lajak tarbiyachilarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayoni samaradorligini oshirishning tamoyillari, metodlari va yondashuvlari, ilmiy metodik tavsiyalar taklif etilgan

Tadqiqotning natijalarining ilmiy ahamiyati inklyuziv ta'lim muhitida bo'lajak tarbiyachilarning kasbiy faoliyatga tayyorlash nazariyasi va metodikasi metodik yondashuvlar asosida takomillashtirilganligi, ishlab chiqilgan modelning samarali tatbiq etish jarayoni aniqlanganligi va mazmuni hamda ishlab chiqilgan takliflardan foydalanish mumkinligi bilan tavsiflanadi

XULOSA

Inklyuziv ta'lim muhiti – bu tarbiyalanuvchilarning maxsus ehtiyojlari va individual imkoniyatlari talablariga javob bera oladigan vositalar orqali ta'lim jarayoni sub'ektlarini samarali shaxslararo munosabatlarga jalb etuvchi ochiqlik, xavfsizlik, tolerantlik, do'stona munosabatlar, variativlik, mobillik, moslashuvchanlik kabi xususiyatlarga ega bo'lgan pedagogik jarayonda bola yo'naltirilgan yondashuvni, inklyuziv ta'lim tamoyillari joriy etilgan ta'lim muassasasi muhiti hisoblanadi. Inklyuziv ta'lim

texnologiyasi – bu uzluksiz ta’lim tizimida alohida tahlil ehtiyojlari bo‘lgan bolalar va yoshlar uchun shaxsga yo‘naltirilgan tizimli yondashuv asosida individual, ijtimoiy moslashuv prinsiplariga tayangan holda maxsus o‘quv dasturlari, materiallari, uslubiy vositalari va metodlari yordamida ta’lim-tarbiyaning pedagogikpsixologik jihatlarini zamonaviy talablarga mos olib boriladigan jarayondir. Alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalarni maktabgacha ta’lim tashkilotlariga ijtimoiy moslashtirish individual-metodik dasturi asosida tashkil etilgan faoliyat inklyuziv ta’lim muhitida bo‘lajak tarbiyachilarning inklyuziv kompetentligini rivojlantirishga yo‘naltirilgan pedagogik-psixologik, diagnostik, ijtimoiy-korreksion faoliyatni takomillashtirish, inklyuziv-pedagogik kompetentlikni shakllantirish, qadriyatli, shaxsga yo‘naltirilgan yondashuvlar tizimini amalga oshirishga xizmat qildi.

Yuqorida ifodalangan xulosalar asosida quyidagilarni tavsiya qilamiz:

- pedagogik kadrlarni inklyuziv ta’lim muhitida ishlashga tayyorlash modelini amalga oshirish bilan bog‘liq bo‘lgan oliy maktab o‘qituvchilarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv ta’lim olishlarini ta’minlashda muassasa psixologi, defektolog, logopedlar, pedagog-tarbiyachilarning aniq dastur asosida ish olib borishlarini ta’minlash;

- maktabgacha ta’lim tashkilotlarida alohida ta’lim ehtiyojlari bo‘lgan bolalar uchun inklyuziv muhitni ta’minlash maqsadida bo‘lajak tarbiyachilarning hamda otaonalar, maktabgacha ta’lim tashkiloti pedagogik jamoasi, jamoatchilikning inklyuziv kompetentligini oshirish hamda hamkorlikda ish olib borishlarini ta’minlash;

soha mutaxassislari uchun bo‘lajak tarbiyachilarning inklyuziv muhitda kasbiy kompetentligini oshirishda pedagogik texnologiyalarni qo‘llashga oid metodik qo‘llanmalar, dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish hamda amaliyotda joriy etish;

- pedagogik oliy ta’lim muassasalarida inklyuziv ta’limning respublika miqyosida keng joriy etilishini inobatga olib maktabgacha ta’lim va barcha boshqa ixtisosliklar pedagogika fani dasturlariga pedagog-tarbiyachilarning inklyuziv ta’lim muhitida kasbiy kompetensiyasini oshirishga oid mavzularni kiritish. Bo‘lajak tarbiyachilarni inklyuziv ta’lim muhitida kasbiy faoliyatga tayyorlashning zamonaviy pedagogik tizimini shakllantirish qadriyatli, ijtimoiy va me’yoriy shart-sharoitlar majmuasi orqali ifodalanadi

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - O‘zbekiston. 1992 y.
2. “Bola huquqlari to‘g‘risida” Konvensiya (29.07.1994 y.) // <https://lex.uz/docs/2595913//>
3. O‘zbekiston Respublikasi “Bola huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida” gi Qonuni. 2008 yil 8 yanvardagi // <https://lex.uz/acts/1297315>
4. O‘zbekiston Respublikasi “Maktabgacha ta'lim va tarbiya to‘g‘risida” gi

qonuni. 16-dekabr 2019-yil, O'RQ-595-son. <https://lex.uz/uz/docs/-4646908>

5. O'zbekiston Respublikasining "Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani (Nyu-York, 2006yil 13 dekabr)" ratifikatsiya qilish haqida"gi O'RQ-695-son Qonuni. 29.05.2021. <https://lex.uz/uz/docs/-5447413>

6. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida" gi Qonuni. 2020 yil 24 avgustdagi O'RQ 637 –sonli. – Toshkent. <https://lex.uz/uz/docs/-5013007>

7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi 4947-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/-3107036>

8. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 8-maydagi "O'zbekiston Respublikasi maktabgacha ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PQ-4312 sonli qarori. <https://lex.uz/uz/docs/-4327235>

9. Abidov B.K. Maktabgacha ta'lim (xorijiy mamlakatlar tajribasi) // Zamonaviy ta'lim 2017 y. 11-son.–B. 34-46.

10. Asadullaeva M.A. Inklyuziv ta'limda musiqa terapiya// <https://openscience.uz/index.php/sciedu/article/view/1308>

11.Кахарова D.S. Umumta'lim maktablarida inklyuziv ta'limning pedagogikpsixologik jihatlarini takomillashtirish. Avtref. P.f.f.d. (PhD). Samarqand 2019 y.–52

12.Давыдова Л.Н., Колоколцева М.А., Рябова Е.В. Инклюзивное образование и нравственные взаимоотношения: грани одной проблемы.–М.: УРСС, 2017.–200с